

Aksiyadorlik-tijorat Xalq banki tomonidan _____ yilda berilgan ____-sonli ishonchnomaga asosan faoliyat ko'rsatuvchi _____, nomidan Boshqaruvchi _____ kelgusida «Bank» deb yuritiluvchi, bir tomonidan va o'z nomidan yoki uning nomidan harakat qiluvchi fuqaro _____, kelgusida «Omonatchi» deb ataluvchi, ikkinchi tomonidan ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.1. «Bank» «Omonatchi»dan pul mablag'larini *muddatli* omonat turiga _____ hisobvarag'iga _____ milliy valyutada naqd pul yoki naqd pulsizshaklda qabul qiladi.

1.2. Omonat turining nomi _____, topshirayotgan mablag' miqdori _____, saqlash muddati _____, foiz stavkasi (yillik) _____ foiz.

_____ omonatga omonatchi tomonidan qo'shimcha badal kirim qilishi ko'zda tutilgan.

1.3. Omonat hisobvarag'iga pul kiritilish sanasi _____ kuni hisoblanadi, omonatni qaytarish sanasi _____ kuni hisoblanadi. Saqlanish muddati tugaganidan keyin omonatchi ushbu hisobvaraqlari yopmasa, ushbu hisobvaraqlari foizlari hisoblanmaydi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatları

2.1. Muddatli omonat, muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan boshqa holatlari yuz bergunga qadar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, omonat bo'yicha foizlar 1.2.-bandida ko'rsatilgan shartda to'lanmaydi, balki omonat turi shartiga ko'ra qayta hisoblanadi va 0-3 oygacha – 14% yillik, 3-6 oygacha – 19% yillik, 6-12 oygacha – 20% yillik, 12-18 oygacha – 21% yillik, 18-24 oygacha – 22% yillik foizlar to'lanadi.

2.2. Omonat summasiga foizlar _____ -oyma-oy to'lanadi, talab qilib olinmagan foizlar omonat summasiga qo'shib boriladi.

2.3. «Omonatchi» yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo'lganda, operatsiyani o'r ganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni so'rash, operatsiya miqdorini chegaralash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirayotgan operatsiyalar «Omonatchi»ning anketasidagi profiliga nomuvofiq bo'lgan hollarda xizmat ko'rsatishni rad etish va «Omonatchi» bilan shartnomalarini bir tomonlama bekor qilish huquqlariga ega.

2.4. Amalga oshirilishi ko'zda tutilgan operatsiya oqibatida bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo'llanish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda bank «Omonatchi»ga hisobvaraqlari ochishni va operatsiyani amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

3. Tomonlarning javobgarligi

3.1. Shartnoma majburiyatları bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

4. Nizolarni hal qilish

4.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha yuzaga kelgan barcha bahsli holatlarni va kelishmovchiliklarni va nizolarni muzokara yo'li bilan hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli sud organlari orqali hal etiladi.

5. Fors major holatlari

5.1. Taraflarning biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini fors-major holatlari, ya'ni taraflarning erki va istagidan tashqari vujudga kelgan hamda ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etishi mumkin bo'lмаган holatlarda (pul kredit siyosatidagi dinominatsiya, yer qimirlash, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar) bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar. Majburiyatni to'liq bajarishdan ozod qilinishi uchun fors-major holatlari asos bo'ladi.

6. Boshqa shartlar

6.1. Shartnomani imzolash orqali omonatchi bank qoidalari va tariflari bilan tanish ekanligini tasdiqlaydi, hamda ularga rioya qilish majburiyatini oladi.

6.2. Bank «Omonatchi» yoki uning vakillari topshirig'iga binoan, bankning omonat hisobvarag'ida turgan pul mablag'lari bilan bank operatsiyalari bo'yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun, taraflarning qo'shimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiga asosan vositachilik haqi undirish huquqiga ega.